

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-mart oylari uchun


- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-mart oylarida, Farg'ona viloyatida jami 4 699,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 125,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

■ Hajm, mlrd so'mda ■ O'sish sur'ati



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	4 699,6	125,5
shaharlar:		
Farg'ona shahri	852,4	116,4
Qo'qon shahri	243,4	129,0
Quvasoy shahri	96,0	130,1
Marg'ilon shahri	518,6	121,0

davomi

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
tumanlar:		
Oltiariq tumani	114,9	119,5
Qo'shtepa tumani	238,8	193,6
Bag'dod tumani	105,9	102,4
Buvayda tumani	136,7	123,6
Beshariq tumani	73,2	111,2
Quva tumani	97,6	124,5
Uchko'prik tumani	123,6	131,1
Rishton tumani	83,3	158,3
So'x tumani	34,5	110,4
Toshloq tumani	212,1	125,9
O'zbekiston tumani	141,5	144,8
Farg'ona tumani	118,8	149,2
Dang'ara tumani	203,4	188,7
Furqat tumani	72,4	182,6
Yozyovon tumani	79,0	113,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,6 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 121,9 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,5 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 27,9 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,9 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 146,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	605,9	250,6	56,4
<i>o'sish sur'ati, %</i>	114,9	47,5	339,7
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 553,1	568,6	221,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	127,6	46,7	128,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 439,8	3,4	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	119,3	0,3	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 912,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 130,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,7 % ga ko'payib, 19,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 49,9 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 127,5 % ni tashkil etgan holda 2 343,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,7 % ni yoki 1 443,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 119,5 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Shahar, tumanlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	912,9	2 343,5	1 443,2	130,3	127,5	119,5
shaharlar:						
Farg'ona shahri	145,6	646,2	60,6	121,3	121,2	76,4
Qo'qon shahri	20,0	169,5	53,9	107,8	118,4	199,9
Quvasoy shahri	1,4	75,1	19,5	90,3	129,8	135,7
Marg'ilon shahri	246,2	233,5	38,9	91,7	195,8	95,1

tumanlar:						
Oltiariq tumani	4,0	69,8	41,1	80,9	136,7	102,5
Qo'shtepa tumani	147,7	46,5	44,6	579,2	74,7	125,3
Bag'dod tumani	3,1	70,7	32,1	14,1	136,3	109,0
Buvayda tumani	3,4	108,8	24,5	6,4	264,4	152,2
Beshariq tumani	2,7	35,8	34,7	113,3	134,5	94,2
Quva tumani	3,9	40,1	53,6	99,4	146,8	113,7
Uchko'prik tumani	5,4	102,9	15,3	329,6	128,7	120,1
Rishton tumani	39,6	15,5	28,2	1941,5	71,6	97,5
So'x tumani	3,4	22,8	8,3	292,3	91,9	156,6
Toshloq tumani	35,1	117,3	59,7	61,6	169,4	141,2
O'zbekiston tumani	4,3	107,1	30,1	281,9	128,4	235,3
Farg'ona tumani	20,4	51,7	46,7	102,9	104,7	447,0
Dang'ara tumani	92,9	90,6	19,9	3738,7	96,6	172,5
Furqat tumani	1,3	26,4	44,7	93,4	118,9	278,0
Yozyovon tumani	8,5	39,8	30,7	72,8	140,3	103,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari 2025-yilning mos davriga nisbatan Dang'ara tumanida 37,4 marta va Rishton tumanida 19,4 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Buvayda tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 3,0 marta), Marg'ilon shahrida (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta) va Toshloq tumanida (1,7 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmaganda holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

L.Yefimova
73 241-98-42
